



XIZMAT KO'RSATISH SOHASI IQTISODIYOTNING MUHIM TARMOQLARIDAN BIRIDIR

i.f.d., prof. Po'latov Muhiddin

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0008-9057-9648

rector@sies.uz

Nizomov Murod

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0001-5981-5322

nizomovmurod30@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy jamiyatda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib borayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki aholining turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Maqolada xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlari rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yoritiladi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, zamonaviy texnologiya, xizmatlar sohasi, iqtisodiy o'sish, aholi, bandlik, ijtimoiy barqarorlik, mehnat jarayoni.

СЕКТОР УСЛУГ КАК ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ СЕКТОРОВ ЭКОНОМИКИ

д.э.н., проф. Пулатов Мухиддин

Самаркандский институт экономики и сервиса

Низомов Мурод

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье рассматривается становление сферы услуг как одного из важнейших секторов экономики современного общества. Эта сфера играет важную роль не только в обеспечении экономического роста, но и в повышении уровня жизни населения, увеличении занятости и укреплении социальной стабильности. В статье рассматривается влияние современных технологий, используемых в сфере услуг, на развитие различных секторов экономики.

Ключевые слова: оказывать услугу, современные технологии, сфера услуг, экономический рост, население, занятость, социальная стабильность, трудовой процесс.

THE SERVICE SECTOR AS ONE OF THE IMPORTANT SECTORS OF THE ECONOMY

*DSc, prof. Pulatov Mukhiddin**Samarkand Institute of Economics and Service***Nizomov Murod***Samarkand Institute of Economics and Service*

Abstract. *This article examines the development of the service sector as one of the most important sectors of the economy of modern society. This sector plays an important role not only in ensuring economic growth, but also in raising the standard of living of the population, increasing employment and strengthening social stability. The article examines the impact of modern technologies used in the service sector on the development of various sectors of the economy.*

Keywords: *service, modern technologies, service sector, economic growth, population, employment, social stability, labor process.*

Kirish.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi va raqobatbardoshligi bevosita zamonaviy texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'liqdir. Raqamli transformatsiya davrida xizmatlar sohasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayanib, o'z faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida milliy iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Xizmatlar sohasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlari natijasida xizmat ko'rsatish sohalari yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda va bu sohalarda yaratilgan qiymat qo'shilgan mahsulotlarning ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xizmatlar sohasini rivojlantirish to'g'risida»gi Qonuni (2018-yil, 10-dekabr). Ushbu qonunda xizmatlarni rivojlantirishning maqsadlari, tamoyillari va mexanizmlari belgilab berilgan. Xizmatlar sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari, imtiyozlar va rag'batlantirish vositalari belgilanadi. «Sog'liqni saqlash xujjati» (2019-yil, 12-may) Xizmatlarning aniq standartlarini belgilovchi huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu hujjat yordamida aholiga taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati nazorat qilinadi. Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlari («Ta'lim to'g'risida», «Oliy ta'lim to'g'risida»), (2017-yil, 1-sentabr). Ta'lim sohasida mavjud xizmatlarni tartibga soluvchi hujjatlar orqali ta'lim xizmatlari sohasining barcha jihatlarini qonun doirasida tartibga solinib boradi.

Adabiyotlar sharhi.

Turli davrlarda faoliyat ko'rsatgan turli olimlarning xizmatlar to'g'risidagi ilmiy qarashlarining tahlili xizmatlar to'g'risida muayyan nazariy qarashlar mavjud bo'lsada, lekin ular fanning mustaqil sohasi sifatida yakunlangan xarakterga ega emasligini ko'rsatdi. Iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar tushunchasining ilmiy asoslangan izohi yo'q, olimlar o'rtasida xizmatlarning tasniflanishi bo'yicha yagona fikr hanuzgacha shakllanmagan.

Xizmat ko'rsatish sohasiga oid ayrim fikr-mulohazalar, ilmiy qarashlarning tarixi uzoq o'tmishga taqaladi. Uzoq o'tmishdan bizgacha meros tariqasida yetib kelgan ilmiy qarashlar zahirasida xizmatlarni inson iqtisodiy faoliyatining alohida o'ziga xos sohasi, noz-ne'mat turi sifatida talqin etilgan va tizim shakliga keltirilgan fikr-mulohazalar mavjud bo'lmasada, lekin ayrim xizmat turlariga daxldor yondashuvlarni uchratish mumkin.

Iqtisodiyot sohasidagi nazariy qarashlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan va siyosiy iqtisod fanining dunyoga kelishiga asos solgan merkantelistlar (A.Monkreyten (1575-1621) va uning izdoshlari) aynan xizmat va uning mohiyati to'g'risida alohida fikr va

munosabat bildirishmagan. Lekin ular davlat, mamlakat boyligining manbaini moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohasida emas, balki savdo va pul muomalasi sohasida, ya'ni hozirgi zamon ilmiy qarashlariga muvofiq, xizmatlar sohasida izlaganlar (Мухаммедов ва бошқ., 2017). A.Monkretyen o'zining mashhur asari "Siyosiy iqtisod traktati"da (1615) shunday deb yozgan edi: "ayriboshlash unumli mehnatning katta va asosiy qismiga aylangan kundan boshlab, sotuvchilar va "tojirlar" markaziy muvofiqlashtiruvchi rol o'ynay boshladilar. Foyda ularni asosiy rag'batlari bo'lib, u qo'llab-quvvatlanishi va himoya qilinishi lozim (davlat tomonidan)" (Слудковская, 2016).

Inson iqtisodiy faoliyatining alohida va mustaqil sohasi sifatida xizmatlar to'g'risidagi ilmiy qarashlar dastlab klassik iqtisodiyot nazariyasi namoyandalari asarlarida shakllana boshladi. Klassik maktab vakillari jamiyat tarixida birinchi bo'lib xizmatlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildirganlar. Ular xizmatlar tushunchasining mohiyatini ochish hamda ularning tovar shaklidagi noz-ne'matlardan tubdan farq qilishini asoslash maqsadida inson iste'mol qiladigan barcha noz-ne'matlarni ikki turga: moddiy noz-ne'matlar va nomoddiy noz-ne'matlarga bo'lganlar. Buyuk iqtisodchi A.Smit (1723-1790) xizmat shaklidagi noz-ne'matlarning iqtisodiy mazmunini to'laroq ochib berish hamda uning mamlakat ijtimoiy boyligining manbai sifatida qarash muammosini hal etish maqsadida, o'zining jahonga mashhur "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari tadqiqoti" (1766) nomli asarida «unumli mehnat» va «unumsiz mehnat» tushunchalari xususida fikr yuritgan (Смит, 2009).

Smit (2009) o'z tadqiqotlarida xizmatlar tushunchasining mohiyatini ochib berishga alohida to'xtalib o'tmagan bo'lsada, ularning (xizmatlarning) inson iqtisodiy faoliyatining o'ziga xos, moddiy ne'mat ishlab chiqarishdan farqlanadigan, alohida turi ekanligini va shu sababli uni ijtimoiy boylik tarkibiga qo'shish yoki qo'shmaslik muammosini hal etishda mazkur sohaning ushbu xususiyatini inobatga olish lozimligini anglab yetgan. Mumtoz maktab asoschilarining fikriga ko'ra, go'yoki insonning faqat moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan bog'lik bo'lgan faoliyatigina qiymat yaratadi, xizmat ko'rsatish faoliyati esa yangi qiymat yaratmaydi va shu sababli uning natijalarini ijtimoiy boylik tarkibiga kiritib bo'lmaydi, chunki xizmat sohasida band bo'lganlarning mehnati moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan qiymatni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi. Smit (2009) bu haqda shunday deb yozgan: «Jamiyatning ayrim eng hurmatli tabaqalarining mehnati, xuddi uy xizmatkori mehnati kabi, hech qanday qiymat yaratmaydi va sotilishi yoki mehnat jarayoni tugagandan keyin ham mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan biror bir uzoq muddat xizmat qiladigan predmet yoki tovarda gavdalanmaydi..... Masalan, podshoh hamma o'zining amaldorlari, zobitlari, butun armiya va floti bilan unumsiz mehnat xodimlarini tashkil etadilar.... Ayrim eng jiddiy va muhim kasblar bilan bir qatorda ayrim eng yengiltak kasblar - ruhoniylar, huquqshunoslar, vrachlar, yozuvchilar, aktyorlar, masxarabozlar, musiqachilar, raqqosalar va boshqalarni bir sinfga kiritish kerak» (Смит, 2009).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy jamiyatda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki aholining turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xizmatlar sohasi mamlakatning umumiy yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ortib borayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, xizmatlar sohasi yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi, aholini ish bilan ta'minlovchi va ichki talabni shakllantiruvchi sektor bo'lib, iqtisodiyotning boshqa

tarmoqlari bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, transport, aloqa, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm kabi xizmatlar nafaqat o'z-o'zidan ahamiyatli, balki sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish kabi sohalarining ham samarali faoliyat yuritishida zarur infratuzilmani yaratadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining **ijtimoiy rivojlanishdagi** o'rni ham beqiyosdir. Aholiga qulay xizmatlar taqdim etilishi, ayniqsa sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya va madaniyat sohalarida sifatli xizmatlarning mavjudligi jamiyat farovonligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim vositadir. Shu nuqtayi nazardan, davlat tomonidan bu sohani qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifati va qamrovini oshirish ijtimoiy taraqqiyotning tarkibiy qismidir.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirdi. Elektron tijorat, masofaviy xizmatlar, onlayn to'lov tizimlari, sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar va boshqa zamonaviy yechimlar bu sohani global iqtisodiyotning yetakchi drayverlaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa pandemiya davrida bu sohaning moslashuvchanligi va ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi bevosita **bandlik darajasini oshiradi**. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu esa ijtimoiy tenglikni ta'minlash, daromadlar farqini kamaytirish va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi bugungi iqtisodiy adabiyotlarda quyidagi turlarda ifodalanmoqda "... maqsadli (ongli) mehnat bo'lib, unda ishlab chiqarishning samarasi uning iste'moli bilan mos tushadi" (Теплицкий, Костюковский, 1993).

1-jadval

Xizmatlarning xususiyatlari:

Belgisi	Izohi
Moddiy emasligi	Xizmatni ushlab, omborga joylab bo'lmaydi
Ishlab chiqarish va iste'mol bir vaqtda bo'ladi	Masalan, sartarosh, haydovchi, shifokor xizmati
Sifatning o'zgaruvchanligi	Har bir mijozga qarab sifat farqlanishi mumkin
Saqlab bo'lmasligi	Xizmatni zaxiraga olib bo'lmaydi, o'z vaqtida ko'rsatiladi
Mijoz ishtiroki	Ko'pincha xizmat ko'rsatish jarayonida iste'molchi ishtirok etadi

Xizmat ko'rsatish sohasi dunyoning barcha mamlakatlari iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanib, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridan farqli o'laroq, bevosita iste'molchilarga xizmat ko'rsatuvchi eng yirik tarmoqlardan biridir. Bugungi kunda mazkur sohada global miqyosdagi raqobat oshgan sari zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi hisobiga xizmatlar ko'rsatishning sifat darajasi keskin oshdi. Xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlari rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yoritiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi va uning ahamiyati

Dunyo mamlakatlarida xizmat ko'rsatish sohasi ulkan sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Aynan shu sohada yaratilgan mahsulotlar hajmi ko'p hollarda boshqa tarmoqlarnikidan ustun turadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari, jumladan AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar iqtisodiyotining deyarli yarmi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. Bu sohaning yuqori samaradorligi iqtisodni rivojlantirish nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilayotgan texnologiyalar

Xizmat ko'rsatish sohasida joriy etilgan zamonaviy texnologiyalar quyidagilardan iborat:

Mobil ilovalar. Bu turdagi texnologiyalar orqali mijozlar onlayn tarzda xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. Ilovalar iste'molchilarni aniq, tezkor va ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash, shuningdek, xizmatlarning buyurtmasi jarayonini soddalashtirish orqali korxonalar uchun foyda keltiradi.

Elektron tijorat. Onlayn savdo, onlayn to'lov tizimlari va mijozlar bilan hamkorlik qiluvchi platformalar orqali korxona daromadlarini oshirish imkoniyati vujudga keladi. Mahsulotlarni tarqatish hamda iste'molchilarning ehtiyojlarini to'liq qondirish ancha osonlashadi.

Sun'iy intellekt. AI texnologiyalari yordamida korxonalar mijozlarning xohish-istaklarini chuqur o'rganishadi va o'z faoliyatini shunga moslashtiradi. Masalan, kompaniya sun'iy intellekt vositasida xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun algoritmlar ishlab chiqadi va buyurtmalar bajarilishini boshqaradi.

Big Data analitikasi. Katta hajmli ma'lumotlar yig'ilishidan kelib chiqadigan tahlil natijalari yordamida korxonalarga yuqori darajadagi qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu ma'lumotlarni chuqur o'rganish korxonalarning mijozlarga mo'ljallangan xizmatlarni o'zgartirish yoki kengaytirish bo'yicha aniq rejalar tuzishga yordam beradi.

Blockchain texnologiyasi. Xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatishda shartnomalar tuzish, ma'lumotlarni saqlash va to'lov operatsiyalarini amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida blockchain texnologiyasi qo'llaniladi. Ushbu texnologiya foydalanuvchining ma'lumotlarini himoyalangan holatda saqlaydi va korxonalarga ishonchni kuchaytiradi.

Internet of Things (IoT). Korxonalar mahsulotlarini boshqarish, monitoringi va analizi jarayonlarini raqamlashtirish uchun IoTdan foydalanadi. Bu texnologiya korxonalarning resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi va mijozlarga munosib xizmat ko'rsatish darajasiga erishishga yordam beradi.

Texnologiyalarning iqtisodiyot rivojiga ta'siri

Yangi texnologiyalar joriy etilishi natijasida xizmatlar sohasida kuzatilayotgan o'zgarishlarning iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jihatlari quyidagilar:

1. Innovatsiyalar. Innovatsion texnologiyalar bilan qurollangan korxonalar xizmat ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunda ular arzon va yuqori sifatli xizmatlarni taklif qilish orqali o'sishdan foyda ko'rishadi.

2. Savdo va logistika. Elektron tijorat hamda mobil texnologiyalar tufayli xaridlar hajmi oshadi, iste'molchilar xarid qilish imkoniyatlarini kengaytiradilar, shu tariqa biznes va davlat byudjeti daromadlarini oshiradi.

3. Yuqori sifatli mehnat resurslari. Texnologiyalar korxonalarning kadrlar salohiyatini oshirishga turtki beradi. IT mutaxassislari, analitiklar va dasturchilar kabi yuqori malakali mutaxassislar xizmat ko'rsatish sohasida zarur bo'lib, ularning miqdorining ko'payishi mehnat bozori o'sishiga sabab bo'ladi.

4. Xalqaro hamkorliklar. Zamonaviy texnologiyalar kompaniyalarning xorij bozorlariga chiqishiga ko'maklashadi. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun yangi daromad manbalarini ochadi.

5. Xarajatlarni qisqartirish. Sun'iy intellekt, big data tahlili va bulutli hisoblash kabi texnologiyalar tashkilotlarning sarf-xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi. Natijada korxona resurslaridan samarali foydalanishga erishish mumkin bo'ladi.

6. Hamkorlikdagi innovatsiya. IT va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi hamkorlik yangi yechimlar va loyihalarni ilgari surishga yordam beradi. Ushbu hamkorlik tufayli yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratilib, iqtisodni yanada yuksaltirishga hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar.

Xizmat ko'rsatish sohasida zamonaviy texnologiyalarning keng qo'llanilishi iqtisodiyotning turli sohalarida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Ayniqsa elektron tijorat, sun'iy intellekt, big data, blockchain va internet of things kabi texnologiyalarning qo'llanilishi xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, iste'molchilarning

ehtiyojlarini to'liq qondirishi mumkin bo'lgan muhit yaratadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar bizneslarning samaradorligini oshiradi, savdoni rivojlantirishga xizmat qiladi va mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar xizmat ko'rsatish sohasi rivojiga kuchli turtki bo'lmoqda va iqtisodiyotning mustahkam o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli Farmoni.

Mirziyoev Sh.M. (2017) «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi». –T.: «O'zbekiston», – 48 b.

Po'latov M.E., Mirzaev K.J., Sharipov T.S., Boboqulov S.B., Sharifov Sh.S. (2023) Iqtisodiy o'sish /Darslik/ Samarqand.: SamISI, "STAP-SEL" MChJ. Nashriyot-matbaa bo'limi, - 456 b.

Мухаммедов М.М. ва бошқалар. (2017) Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. -Самарқанд: Zarafshon, -28 б.

Пўлатов М.Э. (2012) Интеллектуал капитал ҳисоби ва таҳлили: назария ва амалиёт масалалари. Монография. –Т.: Иқтисодиёт, – 166 б.

Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж., Султонов Ш.А., Шавқиев Э. (2018) Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув қўлланма. –Т.: Фан ва технология, – 296 б.

Слудковская М.А. (2016) Политическая экономия Антуана де Монкретьена (к 400-летию выпуска "Трактата по политической экономии").//Вестник Московского университета. Серия б. Экономика, № 2, -С.107-118.

Смит А. (2009) Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Эксмо, – С.104.

Теплицкий В., Костюковский Ю. (1993) Как оценить инвестиционную привлекательность предприятия // Деловая жизнь, – № 9. – С. 11-18.